



**Muhammad Yusufning “Talabalar madhiyasi” she’rida
qo‘llangan antroponimlarining badiiyati.**

Madraximova Matluba Oybek qizi

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy
pedagogika universiteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Muhammad Yusuf ijodida qo‘llanilgan, onomastik birliklarning katta tizimi hisoblangan, antroponimlarning qo‘llash mahoratini shoir yaratgan she’riy matnlar asosida tahlilga tortamiz. Shoir lirikasida antroponimlar ahamiyati qanchalik o‘rinli ekanligi, hamda antroponimlarning tuzilishiga oid qaysi turi ko‘proq ishlatilganligining guvohi bo‘lamiz.

Kalit so‘zlar: Onomastik birliklar, onomapoetika, antroponimlar, lingvokulturologiya, etnolingvistika.

Keyingi yillarda dunyo filologlarining diqqat markazida bo‘lgan masalalardan biri onomastik birliklarning badiiy matndagi o‘rni masalasidir. Bu borada onomastik birliklarga badiiy matnning ko‘pqatlamliligini ta’minlovchi poetik vosita sifatida yondashilgan bir qator tadqiqotlar yaratildi. O‘zbek tilshunosligida badiiy matnning lingvopoetik xususiyatlari, muayyan bir ijodkorning tildan foydalanish mahorati kabi masalalar maxsus o‘rganilgan. Jumladan, I.Mirzaev, A.Nurmonov, N.Mahmudov, M.Yaqubbekova hamda M.Yuldashevlarning tadqiqotlari ilmiy-nazariy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Onomastikaga Yo‘ldoshev B quyidagicha ta’rif beradi. Onomastika -



yunoncha *onomastike* - soʻzidan olingan boʻlib “nom qoʻyish sanʼati” degan maʼnoni bildiradi [4.8]. Onomastik birliklarning, xususan, antroponim, toponim va zoonimlarning lingvopoetik xususiyatlarini oʻrganish oʻzbek tilining mohiyati va uning asosiy vazifalarining namoyon boʻlish qonuniyatlarini, umuman, tilimizning badiiy imkoniyatlarini yanada chuqurroq ochishga imkon beradi. Maʼlumki, oʻzbek nomshunoslari oʻzbek tili atoqli otlari tizimini oʻrganish boʻyicha jiddiy ishlarni amalga oshirdi. Ayniqsa, oʻzbek antroponimiyasi va toponimiyasi, qisman laqab va taxalluslar qoniqarli oʻrganilgan. Masalan, professor E.Begmatov hamda N.Husanov, Z.Doʻsimov, I.Xudoynazarov, M.Rashidovalarning olib borgan tadqiqotlari bugungi oʻzbek onomastikasining diqqatga sazovor namunalari hisoblanadi [1]. Muhammad Yusuf sheʼriyatidagi oʻziga xosliklarning yana bir muhim jihati badiiy asar qahramonlari ismining alohida estetik vazifa bajaruvchi noyob shakllar, detal va unsurlar ekanligidir. Shoir badiiyatidagi ismlar, ota ismlari, laqab va taxalluslarga lingvopoetik yondashuv asosida qarash maqsadga muvofiq boʻlishini alohida taʼkidlash lozim. Shoir sheʼrlarining til xususiyatlarini tahlil qilar ekanmiz, unda qoʻllangan har bir til va nutq birliklariga badiiy matnda qoʻllaniladigan birliklarga lingvistik nazariyalarni isbotlash uchun kerak boʻladigan material sifatida qaramaslik kerak, degan fikr nuqtai nazaridan yondashiladi. Chunki badiiy asarda qoʻllanilgan atoqli otlar, eng avvalo, yozuvchining badiiy niyatiga, asarning umumiy poetikasiga xizmat qiladi. Negaki, “badiiy matn ijodkorning dunyoni, voqelikni obrazli estetik idrok qilishi mahsuli sifatida paydo boʻladi. Badiiy matnning yaratilishi ham, uning oʻzi ham, badiiy butunlik sifatida oʻquvchi tomonidan tushunilishi, idrok etilishi ham murakkab estetik faoliyatdir”. antroponimlar semantik va estetik jihatdan alohida xususiyatlarga ega boʻladi. Muhammad Yusuf oʻz sheʼrlarida qoʻllagan qahramonlari ismiga antroponimlarga uning hatti-harakati, feʼl-atvori bilan bogʻliq tarixiy axborotlarnigina joylash bilan bir qatorda unga hamohang tarzda oʻzining shoir sifatidagi, oʻzbek millati vakili, shu yurt farzandi sifatidagi shaxsiy fikrlarini, oʻz dunyoqarashi tarzini, Vatan



o‘tmishiga bo‘lgan munosabatini mohirlik bilan xalqona sodda, lekin chuqur falsafiy mantiqlar qorishig‘idagi fikrlar tizimi orqali mahorat va betakror iste’dod egasi sifatida joylay va yuklay olgan.

Shoirning birgina “Talabalar madhiyasi” she’rida o‘ziga juda zalvorli badiiy yuk olgan quyidagi antroponimlarni ko‘rishimiz mumkin:

Alp o'g'lonlar o'lkasi bu ko'hna Turon,

Qalqonlari, qanotlari, ilm istang.

Yarim jahon bunyod etgan **Sohibqiron**,

Alisherning avlodlari, ilm istang.

Taxtdan tushganda ham otdan tushmay yurgan,

Ajdodingiz uy qurmagan - Davlat qurgan.

Yurti uchun yelkasida tog'lar surgan –

Rustamlari, Farhodlari, ilm istang.

Ko'z ochgandan kezib yetti bahri ummon,

Yetti tilda so'zlashgan biz tili biyron.

Vatanida Tojmahallar tiklar sulton –

Boburlari, Behzodlari, ilm istang.

Haq yo'lida siz ilmning ummatlari,

Xalq yo'lida hidoyati, himmatlari.

Madad bo'lsin, **Yassaviylar** hikmatlari,

Bobo Mashrab bayotlari, ilm istang.



Ilm istang, izingizdan ibrat yog'sin,
Ixlosingiz, shaxdingizdan shiddat yog'sin.
Ortingizdan mag'rur-mag'rur millat yog'sin,
Mulki Turon najotlari, ilm istang!...
Alp o'g'lonlar o'lkasidir O'zbekiston,
Erkli elning qanotlari, ilm istang.
Yarim jahon bunyod etgan **Sohibqiron**,
Alisherning avlodlari, ilm istang [2.195].

Ushbu she'rda shoir yoshlarni ilm istashga, ilm o'rganishga targ'ib etadi va bu fikrni shunchaki ifodalamasdan, deyarli har bir bandda yurtimizning butun dunyoga taniqli bo'lgan buyuk siymolari va ular qoldirgan buyuk meros orqali har bitta yosh avlod qalbida buyuk faxr va iftixor tuyishga va ularga munosib izdosh bo'lishga chorlaydi. She'r ko'hna Turon o'lkasiga ishora qilish orqali boshlanadi va yoshlarga yurtning qalqonlari, qanotlari deya murojaat qiladi.

Sohibqiron-Amir Temurning sharaflı unvoni. Aynan mana shu qismda ko'hna Turon o'lkasi va Sohibqiron antroponimini birga keltirgan. Turon o'lkasi asosan O'rta Osiyo hududini, xususan Movarounnahrni anglatadi va bu hudud Amir Temurning davlatining asosiy qismi bo'lgan. Amir Temur o'z saltanatini kuchaytirish va kengaytirish uchun Turon hududidagi siyosiy birlikni ta'minlagan. U Turon davlatlarini yagona makon sifatida birlashtirib, buyuk imperiyani barpo etgan .

Alisher - Alisher Navoiy (1441-1501) - buyuk o'zbek shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi. O'z she'riyati, xususan, turkiy tilda birinchi marta yaratilgan "Xamsa" epik dostoni bilan o'zbek adabiyotini jahon miqyosiga ko'targan shaxs [3.15]. She'riy matnlarda



allyuziy nom sifatida qo‘llanib, Alisher Navoiyning turkiy tilni va o‘zbek adabiyotini rivojlantirish yo‘lidagi bebaho xizmatlariga hamda uning asarlariga ishora qilingan.

Rustam- Firdavsiyning “Shohnoma” asaridagi pahlavon jangchi, Zolning o‘g‘li. Rustam nomi o‘zbek lingvomadaniyatida Alpomish nomi kabi pahlavonlik, mardlik etoloni sifatida qabul qilingan [3.85]. She’rda “Rustamlari” deyilganda esa, ya’ni antroponimga ko‘plik qo‘shimchasi bilan ishlatilganda, birgalik ma’nosini ifodalayapti, yurtimizda “Rustam” kabi qahramonlarning ko‘pligiga ishora qilyapti.

Farhod - Sharq xalqlari folklori va yozma adabiyotida keng tarqalgan obraz, A.Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni bosh qahramoni, Chin xoqoni o‘g‘li.

Farhod nomi she’riy matnlarda o‘xshatish etaloni vazifasida kelib, oshiq, mard yigitlar obrazini Farhod obrazi bilan qiyoslash uchun xizmat qilgan [3].

Ushbu she’rda esa mardlik ifodasi sifatida, Farhod obrazi yelkasida tog‘lar surgan deganda, u qadimgi mifologiya va folklorda tog‘ qahramoni sifatida tasvirlanganligi tushuniladi. Farhodning eng mashhur tasviri Nizomiy G‘anjaviyning “Farhod va Shirin” dostoni orqali berilgan bo‘lib, unda u tog‘larni surib, o‘z sevgisi uchun mashaqqatli ishlarni bajaradigan jasur va kuchli inson sifatida ko‘rsatiladi.

Keyingi misralarda esa, “Vatanida Tojmahallar qurgan sulton” deyilganda esa buyuk Boburiylar sulolasi vakili **Shoh Jahonga** ishora qilgan. Tojmahalni Shoh Jahon o‘zining sevimli rafiqasi Mumtoz Mahal xotirasiga qurdirgan.

Bobur- shoir, tarixchi, geograf, davlat arbobi, mahoratli sarkarda, boburiylar sulolasining asoschisi Zahiriddin Muhammad ibn Umarshayx Mirzoning taxallusi [3.25].

Behzod - Kamoliddin Behzod (1455-1536) - mashhur miniaturachi rassom, Alisher Navoiyning zamondoshi, Hirot maktabi asoschisi [5.293]. She’r misralardan birida



“Boburlari, Behzodlaridanri” deya qo‘llanilgan va bunda o‘xshatish , qiyoslash mazmunini kuchaytirishga xizmat qilgan.

Yassaviy - tasavvufning mashhur namoyandalaridan biri, shoir. Yassaviy turkiy xalqlarni islomga yanada kengroq jalb qilish va tasavvuf g‘oyalarini omma ko‘ngliga chuqur singdirish maqsadida she’riyatdan ham foydalangan[3.99].

Mashrab - O‘zbek mumtoz shoiri va mutafakkiri Boborahim Mulla Valiy o‘g‘lining tahallusi. Mashrab tasavvufiy yo‘nalishidagi, shuningdek chuqur ijtimoiy mazmun kasb etgan, inson ma’naviy kamolotini ulug‘lovchi, Allohga va insonga bo‘lgan teran muhabbatni vasf etuvchi she’rlari bilan o‘zbek adabiyoti tarixidan favqulodda iste’dodli shoir sifatida o‘rin olgan [3.63]. Mashrab tasavvufiy yo‘nalishdagi, shuningdek, chuqur ijtimoiy mazmun kasb etgan inson ma’naviy kamolotini ulug‘lovchi madaniyat namayondosi keltirilgan.

Xullas, Muhammad Yusuf she’rlaridagi antroponimlar badiiy matnda lingvopoetik jihatdan aktuallashib, asosan, matn yaratuvchi yoki asar personajining subyektiv munosabatini ifodalashga, shuningdek, turli badiiy san’atlarni shakllantirish, obraz xarakteriga xos ayrim jihatlariga ishora qilish, asarga komik effekt bag‘ishlashga xizmat qilgan. Muhammad Yusuf she’rlarida antroponimlar badiiy vosita sifatida shoirning she’riy dunyosini boyitadi, tarixiy va madaniy qatlamlarni uyg‘unlashtiradi hamda o‘quvchida chuqur estetik va hissiy taassurot qoldiradi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Begmetov E. O'zbek tili antroponimikasi. Toshkent, 2013; Xudoynazarov I. antroponimlarning til lug'at tizimidagi o'rni va ularning semantik-uslubiy xususiyatlari. ND, Toshkent, 1998; Rashidov M. O'zbek tilidagi laqablarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari. Toshkent, 2008; Husanov N. O'zbek antroponimlari tarixi. Toshkent, 2014.
2. Muhammad Yusuf. Saylanma. – Toshkent: Pharos ambition, 2022.
3. Xudoyberganova D., Andaniyazova D. O'zbek tili poetonimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2016
4. Yo'ldoshev B. O'zbek onomastikasi masalalari. – Samarqand: 2011
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti.